

УДК: 33.061.1(575.1)

QISHLOQ XO‘JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION TASHKIL ETUVCHILARI

Rasulov Sodiq Sa‘dullayevich - mustaqil tadqiqotchi, e-mail:Sodiq_rasulov@mail.ru

Qarshi davlat universiteti, Qarshi sh., O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni izchil joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish, innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha baholash, qishloq xo‘jaligi tashkilotlari innovatsion tarkibining konseptual modellari, O‘zbekistondagi institutsional muhitning maqsadli yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, innovatsiya, intensiv rivojlantirish, innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish, innovatsion komponent, integratsion tuzilmalar, konseptual model, institutsional muhit.

УДК: 33.061.1(575.1)

ИННОВАЦИОННЫЕ СОСТАВЛЯЮЩИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Расулов Содик Саъдуллаевич – соискатель, e-mail:Sodiq_rasulov@mail.ru

Каршинский государственный университет, г. Карши, Узбекистан

Аннотация. В статье даны предложения по интенсивному развитию сельской экономики путем формирования инновационных кадров в сельском хозяйстве, производства финансирования инновационных разработок по аграрным уровням, концептуальных моделей инновационной структуры сельских хозяйственных организаций и целевые направления институциональной среды в Узбекистане.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инновации, интенсивное развитие, финансирование инновационных разработок, инновационная составляющая, интегрированные структуры, концептуальная модель, институциональная среда.

УДК: 33.061.1(575.1)

INNOVATIVE COMPONENTS OF IMPROVING THE EFFICIENCY OF AGRICULTURE

Rasulov Sodik Sadullaevich – researcher, e-mail:Sodiq_rasulov@mail.ru

Karshi State University, Karshi city, Uzbekistan

Abstract. The article gives proposals for the intensive development of the rural economy through the formation of innovative personnel in agriculture, the production of financing for innovative developments at agricultural levels, conceptual models of the innovative structure of rural economic organizations and target areas of the institutional environment in Uzbekistan.

Keywords: agriculture, innovations, intensive development, financing of innovative developments, innovative component, integrated structures, conceptual model, institutional environment.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalari, ayniqsa global iqlim o'zgarishi natijasida sayyoramizning ko'plab hududlarida keng avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning xo'jalik faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etgani holda, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda.

Muhim strategik tarmoqlardan biri sifatida qishloq xo'jaligining vazifasi - mamlakatda, shuningdek jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Goldman Sachs xalqaro konsalting kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, BMT 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,8 mlrd. kishiga yetishini, buning uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 70 foizga oshirish kerakligini bashorat qilmoqda [2]. BMT, XVJ, Jahon banki kabi bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar dunyoda oziq-ovqat inqirozi yanada chigallashishini, buning uchun qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, sohaga innovatsiyalarni izchil joriy etish, ilmiy-tadqiqotlarni yanada jonlantirish zarurligini ta'kidlashmoqda [1].

Yer munosabatlarini tahlil qilish O'zbekistonda bu borada tub islohotlar amalga oshirilayotganligini, turli xil tabiatga ega bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning ta'siri ostida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish borasida jiddiy xatarlar vujudga kelayotganligini ko'rsatmoqda. Bu yerga egalik qilish shakllari va turlarining o'zgartirish, yerdan foydalanish borasida huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish masalalari har qachongidan ko'ra, tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib turibdi. Zero, aqlli qishloq xo'jaligi ekinlar hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligini sezilarli darajada oshiradi, xarajatlar va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Dunyoda ushbu sohaning jadal rivojlanishi qulay tabiiy sharoitlarga qaramay, o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda hali ham yetarli raqobatbardoshlikka ega bo'lmagan O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektori uchun jiddiy muammo tug'dirmoqda. Chunki O'zbekistonda respublika aholisining yarmi qishloq joylarda yashaydi, mehnatga layoqatli aholining 1/4 qismidan ko'prog'i qishloq xo'jaligida band bo'lib, YaIMning deyarli yarmini ishlab chiqaradi. Shu munosabat bilan O'zbekistonlik iqtisodchi Y. Qutbitdinov "Qishloq xo'jaligining "aqlli" dastaklari" maqolasida jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish, xususan "aqlli qishloq xo'jaligi" vositalarini joriy qilish masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Uning fikricha, "aqlli qishloq xo'jaligi" vositalarini izchil joriy qilish O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari sharoitida sohani intensiv rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi turmush farovonligini ortishiga xizmat qiladi [3].

Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishning kadrlar ta'minotini yo'lga qo'yish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro uyg'unligini ta'minlash asnosida sohaga ilmiy ishlanmalarni keng joriy etish masalalari tadqiqotchi J. Kucharovning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Mazkur tadqiqotchi agrar sohani rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash, qishloq xo'jaligida yuqori malakali mutaxassislar ta'minoti borasida qishloq xo'jaligi oliy ta'limini isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaratgan va agrar sohada kadrlar ta'minotini yaxshilash bo'yicha qator takliflar ishlab chiqqan [4]. Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish masalalariga tadqiqotchilar tomonidan qanchalik katta e'tibor qaratilmasin, agrar sohaning milliy xo'jalikning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutishi, bu borada ilmiy izlanishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni talab qiladi.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hukumat dasturlari va yo'l xaritalari tashkil qiladi. Tadqiqot

jarayonida ilmiy abstraksiya, umumlashtirish, guruhlash, tasniflash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, taqqoslama tahlil va o‘zaro qiyoslash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natija

Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni izchil joriy qilish qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish, yalpi mahsulot hajmini oshirish hamda ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni moliyalashtirishga zamin yaratadi. Innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibi va asosiy mahsulotlar hosildorligini tahlil qilish asosida baholash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi, foizda.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining tegishli yillar bo‘yicha ma‘lumotlari.

Davlat statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushi 7 % atrofida bo‘lgan. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning yarmi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining o‘z mablag‘laridir [5].

O‘zbekistonda 2020–2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning dastlabki davrlarida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i barqaror iqtisodiy o‘shishni ko‘rsatdi. Bu ijobiy natijalarga quyidagi omillar tufayli erishildi:

- qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘shishning aniq strategiyasi tasdiqlanishi sohani mustahkam huquqiy bazasini yaratdi. Natijada sohaga investitsiyalar oqimi ortib bordi;
- 2022-yil 1-iyuldan boshlab g‘allani davlat tomonidan xarid qilish va sotishda bozor narxlariga o‘tildi: fermer xo‘jaliklari va klasterlarga bug‘doyni mustaqil ravishda bozor narxlarida sotuvga qo‘yish vakolati berildi;
- qishloq xo‘jaligida mutloq yangicha tashkiliy – iqtisodiy mexanizm shakllantirildi;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar barcha turdagi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ishtirok eta oladigan “E-auksion” elektron platformasida o‘tkaziladigan ochiq elektron tanlov orqali ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi [6].

Qishloq xo‘jaligidagi faol investisiya jarayoni nafaqat sanoatning miqdoriy ko‘rsatkichlarini oshirish, balki mahsulot sifatini yaxshilash, tovarlilik darajasini oshirish, qishloq xo‘jaligida innovatsion komponentning ishlash modelini ham o‘zgartirish imkonini beradi (2-rasm).

Qishloq xo‘jaligida innovatsion komponent faoliyatining konseptual modeli an’anaviy tarzda faoliyat yurituvchi institusional muhitga asoslanadi. Uning vazifasi innovatsion jarayonni kadrlar bilan ta‘minlash, fundamental tadqiqotlar olib borish, eksperimental maydonlarni tashkil etish va boshqalardan iborat.

Asosiy yangilik sifatida ko‘rib chiqilayotgan konseptual modelning ishlashi doirasida u uchta blokka ajratiladi:

- ixtisoslashgan davlat tashkilotlari va muassasalari;
- muhandislik va infratuzilma sohasi, infratuzilma bloki;
- ishlab chiqarish va infratuzilmani boshqarishning zamonaviy tizimlari.

Qishloq xo‘jaligi innovatsion tashkil etuvchilari, ya‘ni “Agromarkaz”ning o‘ziga xosligi xarajatlarni qisqartirishning zamonaviy va istiqbolli yondashuvlarida, qishloq xo‘jaligida innovatsion

mahsulot yaratishda, shuningdek, mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni xalqaro oziq - ovqat bozorlarida raqobatbardoshligini ta‘minlashda namoyon bo‘ladi.

“Agromarkaz”ning asosiy faoliyati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

Agrolab - o‘simlik va tuproq diagnostikasi bo‘yicha zamonaviy laboratoriya;

Agromarket - qishloq xo‘jaligi mahsulotlari do‘koni;

Agronom, veterinar va laboratoriya onlayn maslahatchilar;


Agromarkaz tasarrufidagi mini-texnikalar yordamida xizmat ko‘rsatish;

Call Center - yagona raqam bo‘yicha maslahat va xizmatlar olishni tashkillashtirish;

Avtomatlashtirilgan bank xizmatlarini ko‘rsatish markazi.

“Agrozamin - O‘zimizniki” - bu fermer va tomorqa yer egalari uchun maxsus chakana savdo platformasi. Ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarga ular yetishtirgan yoki ishlab chiqargan mahsulotni tez va oson sotish imkoniyati taqdim etiladi. Servis katalogi agrar soha bilan bog‘liq 100 dan ortiq yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat markazi so‘ngi yillarda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda bir nechta raqamli yechimlarni joriy qilmoqda.

Infratuzilma blokida muhandislik - infratuzilma sohasini belgilab olish innovatsion raqamli yechimlarni qo‘llashga imkon beruvchi, qishloq xo‘jaligida mavjud ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini keng modernizatsiyalash va yangilarini shakllantirish zarurati bilan asoslanishi mumkin. Bunda, xarajatlarni minimallashtirish, tabiiy tizimlar va jarayonlarga antropogen ta‘sirni kamaytirish uchun ekologik standartlarni ta‘minlash, raqamli strukturani amal qilish sifatini ta‘minlash va h.k.lar bilan bog‘liq bir qator shartlar yuzaga keladi.



2– rasm. Qishloq xo‘jaligida innovatsion komponentning konseptual modeli

Manba: muallif ishlanmasi.


Innovatsion jarayon natijasi sifatida ishlab chiqarish va infratuzilmani boshqarishning yangi tizimlarini ishlab chiqarishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati nafaqat amaliy yechimlarni yaratish, balki yangi biznes falsafasini shakllantirish hamdir.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosini yirik integratsiya tuzilmalari, asosan agroklastlar tashkil qiladi. Ular ITTKI ni moliyalashtirishda o‘z mablag‘lari va hukumat mablag‘lari bilan ta‘minlangan. Ularning innovatsion faoliyatini amalga oshirish tizimida ilmiy

yangilikni ta'minlovchi unsurlar mavjud. U qishloq xo'jaligida yirik integratsion birlashmalar faoliyatining innovatsion tarkibiy qismi bo'lgan konseptual modelda keltirilgan (3-rasm).

Qishloq xo'jaligidagi yirik integratsion birlashmalarining innovatsion komponenti hali rivojlanayotgan tuzilma bo'lib, bu uning zamonaviy rivojlanishining unsurlari: texnologiyalar transfer markazlari va raqamli poligonlarni ajratib ko'rsatish bilan tasdiqlangan. Bular ko'rib chiqilayotgan qishloq xo'jaligi tashkilotlari iqtisodiy o'sishining innovatsion tarkibiy qismining ilmiy yangiligini ta'minlovchi yagona unsurlari bo'lmasada, eng ahamiyatlilari deb aytishimiz mumkin.

Texnologiyalar transferi markazlari oliy ta'lim tashkilotlari negizida davlat tashabbusi bilan ham, tarkibiy bo'linmalar sifatida qishloq xo'jaligidagi yirik integratsion birlashmalar tashabbusi bilan ham shakllantirilishi mumkin. Ularning vazifasi optimallashtirish, ya'ni aniq shart – sharoitlarda eng maqbul ishlab chiqarish va/yoki tashkiliy texnologiyalarni topish, shu bilan birga ulardan masshtabli foydalanishni ta'minlashdan iborat.




3-rasm. Qishloq xo'jaligida yirik integratsion tuzilmalar faoliyatining innovatsion tarkibiy qismining konseptual modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari milliy ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardosh ustunliklarini shakllantirishda ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani muhim o'rin tutadi. Bunda agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajminigina emas, balki yaxlit tarzda milliy iqtisodiyot darajasida innovatsion faoliyatini rag'batlantirish uchun ajratilayotgan mablag'larni ham hisobga olish zarur. Bu qishloq xo'jaligi tashkilotlari va transmilliy qishloq xo'jaligi korporatsiyalarining tashqi iqtisodiy faoliyatida turdosh sohalardagi innovatsiyalarni qo'llash bilan bog'liq.

Shartli mustaqil qishloq xo'jaligi tashkilotlari faoliyatining innovatsion tarkibiy qismi taklif etilayotgan konseptual modelning asosiy yangiligi innovatsion texnologiyalarni outsorsing orqali tashkiliy, iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlariga o'tkazilishidir (4-rasm). Bunday mexanizm qishloq xo'jaligi tashkilotiga innovatsion mahsulotni sinab ko'rish, outsorsingda innovatsion yechimlardan foydalanish va o'z bo'linmasini yaratish xarajatlarini hisoblash va o'zaro bog'lash imkonini beradi. Har qanday tashkilot uchun strategik rejalashtirish sohasi kelajakdagi raqobatbardoshlik manbai va bozor ulushini saqlab qolish vositasidir. Shartli mustaqil qishloq xo'jaligi tashkilotlari uchun bu innovatsion yechimlarni topish vositasi hamdir.

Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning kichik shakllari hisoblangan dehqon xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar sezilarli ahamiyatga ega.



4 – rasm. Shartli mustaqil qishloq xo‘jaligi tashkilotlari amal qilishining innovatsion tarkibining konseptual modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Avval ta’kidlanganidek, ularning ahamiyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining deyarli 65-70% ulushini ishlab chiqarishi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, xo‘jalik yuritishning kichik shakllarining umumiy soni integratsiyalashgan va shartli mustaqil qishloq xo‘jaligi tashkilotlari sonidan 33 baravardan ortiqroqdir. Ular sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan umumiy ulushining 3-5 foiz qismini tashkil etadi. Kichik xo‘jalik yuritish shakllari innovatsion tarkibiy qismini rivojlantirish uchun yetarli resurs salohiyatiga ega emas. Integratsiyalashgan va shartli mustaqil qishloq xo‘jaligi tashkilotlaridan farqli o‘laroq, kichik xo‘jalik yuritish shakllarida innovatsion mahsulotlar (yechimlar), qoida tariqasida, huquqiy himoya maqomiga ega emas, ularga patent va sertifikatlar berilmaydi.

Qishloq xo‘jaligining innovatsion rivojlanishidan manfaatdor barcha tomonlarning o‘zaro hamkorligining yorqin misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-son Farmoni doirasida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi subyektlariga zamonaviy agroxizmatlar ko‘rsatishning uzviy tizimini o‘zaro bog‘laydigan Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazini ko‘rsatish mumkin [7]. Agrosanoat majmuida strategik tadqiqotlar va prognozlash ishlari tizimli tashkil etilmayotganligi sababli soha va uning tarmoqlarida mavjud muammolarni tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan xulosalarga tayangan holda rivojlantirish istiqbollari belgilash bo‘yicha yaxlit tizim yaratilmagan.

Natijada, agrar sohada ta’lim, ilm-fan, innovatsion faoliyat va ishlab chiqarishning chuqur integratsiyasini ta’minlash hamda ushbu tizimning samarali boshqaruv bo‘g‘inlarini shakllantirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi doirasida belgilab qo‘yilgan maqsadli ko‘rsatkichlarning aksariyatiga erishilmay qolmoqda. Respublikamizda ITTKI ga xarajatlarning so‘ngi yillarda ortib borishi va sohada patent talabnomalari sonining qisqarib borishi sohada innovatsiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq quyidagi qator muammolarning mavjudligidan darak beradi:

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ichki narxlari va eksport narxlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar;

qishloq xo‘jaligida loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘ ulushining pastligi, shu sababli ular agrar ishlab chiqarishi subyektlari faoliyatining innovatsion tarkibiy qismining taqdim etilgan konseptual modellariga kiritilmagan;

dehqon xo'jaliklari moliyaviy imkoniyatlarining chegaralanganligi bois innovatsiyalarni asosan o'zlashtiruvchilari bo'lib qolishmoqda. Innovatsiyalarni joriy etishda nisbatan mustahkam moliyaviy bazaga ega bo'lgan agroklasterning o'rni beqiyosdir.

Ushbu toifaga investitsiyalarni jalb etish quyidagi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi; ishlab chiqarish natijalari va mehnat unumdorligini baholashda hududlardagi haqqoniy vaziyat baholanadi; me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun aniq va ishonchli ma'lumotlarni olish ta'minlanadi, marketing faoliyatining samarasizligi, bozor tahlilining deyarli yo'qligi fermer xo'jaliklari va boshqa agrofimalarning biznes rejalarini ishlab chiqish yoki faoliyatni to'g'ri rejalashtirishda mavjud va o'zgaruvchan bozor imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, muammoning muhim tarkibiy qismi - bilim va axborotlar almashinuvini ta'minlaydigan va xususiy biznes faoliyatiga asoslangan yaxshi ishlaydigan mexanizmning yo'qligidir. Bizning fikrimizcha, bunday o'zaro aloqani o'rnatishga yordam beradigan istiqbolli vositalar quyidagilar bo'lishi zarur:

1. Sohani rivojlantirishda klaster yondashuvini tatbiq etish. Bizning fikrimizcha, ushbu vosita eng istiqbolli hisoblanadi, chunki klasterning asosiy ishtirokchilari kichik va o'rta biznes vakillaridir. Shu bilan birga, butun MDH davlatlari hududida klasterlarning rivojlanishi ushbu hududlarda makonli joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ma'lum qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, amaliyot va tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqoridan tashabbus bilan klasterlar yaratishga urinishlar kamdan-kam hollarda muvaffaqiyatli yakunlanadi.

2. Texnologik platformani yaratish. Ko'pgina mutaxassislar klaster va texnologik platformani tenglashtirishga moyildirlar, bu to'g'ri emas. Ayni paytda, texnologik platformalarni yaratish muammolari odatda klasterlarga nisbatan tavsiflangan muammolarga o'xshashligini ta'kidlash kerak.

3. Davlat-xususiy sheriklik vositalaridan foydalanishni kengaytirishni O'zbekiston agrosanoat majmuasida o'ziga xos axborot infratuzilmasini yaratishning eng istiqbolli yo'nalishi deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar

- [1] Перспективы развития мирового сельского хозяйства до 2050 года: возможности, угрозы, приоритеты <https://rosng.ru/post/content-perspektivy-razvitiya-mirovogo-selskogo-hozyaystva-do-2050-goda-vozmozhnosti-ugrozy>
- [2] <https://www.if24.ru/selskoe-hozyajstvo-budushhego-globalnye-trendy/>
- [3] <https://review.uz/post/umniye-instrumentiy-selskogo-xozyaystva>
- [4] Kucharov J. O. Qishloq xo'jaligini innovasion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo'llari. Dissertasiya avtoreferati. T., 2021.
- [5] <https://www.agro.uz/iqtisodiy-ko-rsatkichlar/#1672920414978-99b46d5d-5f80>
- [6] Qishloq xo'jaligini isloh qilish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar. Saytda mavjud.
- [7] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoni.
- [8] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.06.2019-yildagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.
- [9] Abduvoxidov A. i dr. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sish sifatini aniqlash va uning ko'rsatkichlari tahlili //Economics and education. – 2022. – T. 23. – №. 4. – S. 16-31.
- [10] Nurmuxammadova M. X. i dr. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish asoslari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – B. 401-417.
- [11] Abduvoxidov A. A. i dr. Qishloq xo'jaligida klasterlarning o'rmi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 10. – B. 13-15.